

30«9»2022 yil.

163-5-74-XT/2022-son

MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

"BEST TOOLS" mas'uliyati cheklangan jamiyati "yetkazib beruvchi" deb yuritiladi, Nizom asosida harakat qiluvchi rahbari Xolikov Ismoil nomidan, bir tomonidan Nurota tuman xalq ta'limi bo'limi nomidan Ustavi asosida harakat qiluvchi, keyingi o'rirlarda "buyurtmachi" deb yuritiladi rahbar Bayramali Bobonazarov nomidan, ikkinchi tomonidan quyidagilar to`g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1.SHARTNOMA PREDMETI

1.1."Yetkazib beruvchi" o`ziga tegishli tovarni "buyurtmachi"ga mulk kilib topshirish, "buyurtmachi" esa ushbu tovarni kabul kilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.
Tovar haqida ma'lumotlar: Ushbu shartnomaning 1.2. kismidagi 1 jadvalida ko`rsatilgan.

1.3.

№	Товарнинг номи	Улчов бирлиги	Микдори	Бахоси	Суммаси
1	Моноблок HP24 corei3	Дона	12	8 900 000	106 800 000
2	Ноутбук HP	Дона	2	5 950 000	11 900 000
3					
Жами:					118 700 000

1.4. Tovarning umumiyyahosi 118 700 000 (bir yuz o'n sakkiz million yetti yuz ming) so'mni tashkil etadi.

2. TO'LOV SHARTLARI

2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
Shartnoma 5 bank kuni ichida Sotuvchiga oldindan avans tariqasida 30 foizi miqdorida pul to'laydi qolgan 70 foizi to'lash 10 bank ish kunida amalga oshiriladi.

2.2. To'lov shakli: "yetkazib beruvchi"ning hisob raqamiga o'tkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1."Yetkazib beruvchi"ning majburiyatları:

Shartnomaning 2.1 bandi "buyurtmachi" tomonidan bajarilgan sanadan boshlab tovarni 10 bank kun ichida "buyurtmachi"ga topshirishi shart.

Tovarni va unga oid xujatlarni ushbu shartnoma shartlari asosida "buyurtmachi"ga topshirish.

Tovarni shartnoma shartlariga javob beradigan miqdorda va sifatda, tashish jarayonida uning buzilishi, sinishi yoki yuk bulishi mumkinligini istisno kiladigan darajadagi idishlarda va joylashtirilgan xolda topshirish.

3.2."Buyurtmachi"ning majburiyatları:

Tovarni Tovar kuzdan kechirish (muddati) 2 kunlik muddatda kuzdan kechirish. Tovarning mazkur shartnomalariga mos kelmasligi aniklangan takdirda, (yoki nobut bo'lganda zarar yetganda) "buyurtmachi" shu muddatda "yetkazib beruvchi"iga aniklangan nomuvofikliklar haqida ma'lumotlarni aks ettiruvchi xabarnoma (reklamatsiya) yuboradi.

"Yetkazib beruvchi" sifati lozim darajada bo'lмаган tovarlar yuborilganligi haqida xabarnomani olgan paytdan boshlab Tovarni almashtirish uchun (muddat) 7 kun ichida sifati lozim darajada bo'lмаган tovarni sifatlisiga almashtirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4. SHARTNOMANING BAJARISH MUDDATI.

4.1. Shartnomalar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatga olingandan boshlab qonuniy kuchga kiradi va amal qilish muddati « » 2022 yildan boshlab 25- dekabr 2022 yilgacha qadar etib belgilandi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.

5.1. Yetkazib beruvchi maxsulotlarni topshirish muddatini buzganlik uchun kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi biroq bunda umumiyligi summasi yani yetkazib berilgan mahsulot bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.2. To'lovni kechiktirilganligi uchun iste'molchi xar bir kechiktirilgan kun uchun 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi biroq bunda penyaning umumiyligi summasi yetkazib berilgan mahsulot bahosining 50 % foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.3. Boqimandani to'lash taraflarni shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarmaganlik va (yoki) lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi, xamda O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuning 25-32 moddalarini, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlik, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175,176-1,212-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralarini qo'llaniladi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

6.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning afsuslangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shujumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'daqilish, ta'magirlilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning afsuslangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki kolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg'alarmi taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim holatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi

tomon foydasiga qanday dir hatti-harakatlarni harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgani shularni bajarishdan vos kechadilar deb ma'lum qiladilar.

6.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7. NIZOLARNI HAL QILISH.

7.1. Ushbu shartnoma yuzasidan taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokalar olib borish yo'li bilan xal etiladi.

7.2. Muzokoralar olib borish yuli bilan nizoni xal etish imkoniyati bo'lmagan takdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tegishli sud organlariga murojaat etiladi.

8. FORS-MAJOR VA JAVOBGARLIK DAN OZOD ETISH.

8.1. Tomonlarning xohish istagiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan hollarda noqulay ob-xavo sharoitlari, zilzila, suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar (fors-major) tufayli yetkazib berilmagan yoki to'lab berilmaganligi shartnoma shartlarini ijro etishi buzilgan deb hisoblanmaydi va ushbu holatda tomonlarni shartnomani bajarish mudati kelishilgan muddatga kechiktriladi.

9. BOSHQA SHARTLAR.

9.1. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga muvofiq yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda ikkinchi tarafning talabi bilan bekor qilinishi mumkin. Shartnomani bir taraflama bekor qilish yozma taklif berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Taklif olingandan so'ng 30 kunlik muddat ichida unga javob olinmagan taqdirda shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

9.2. Taraflar o'zlarining yuridik manzillari va boshqa rekvizitlari o'zgorganligi haqida bir-birlarini 3 kunlik muddatda xabardor qilishlari shart.

9.3. Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yozma ravishda bajarilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan holdagina haqiqiydir.

**ТАРАФЛАРНИНГ ЎРИДИК
МАНЗИЛЛАРИ ВА РЕКВИЗИТЛАРИ.**

Сотувчи:

«BEST TOOLS” МЧЖ

Манзил: Нурота т. Т.Бозоров кўчаси 21 уй

Тел: +99897-365-00-44

ИНН:306761988

МФО: 00196

Х.Р. 20208000905128839001

Рахбар

М.Жамолов



Сотиб олувчи:

Нурота туман халқ таълими

Манзил: Нурота т. М.Рахимов

Тел:99-752-66-92

ИНН:200030979

МФО:00014

Х.Р:100022860122387092100075074

Рахбар

Б.Бобоназаров



	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.
Imzolovchi F.I.SH.	BAYRAMALI BOBONAZAROV BAHRONOVICH
Imzolangan sana	30 сен 2022 09:13
Hujjat kodi	SM5848671081
Hulosa kodi	DK3338632815 .

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIغا MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№

1. Loyihaning turi:

Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Nurota tuman xalq ta'lim bo'limi, 26.09.2022 yil.

Huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,


XULOSA:

Nurota tuman xalq ta'lim bo'limi va "BEST TOOLS" MChJ o'rtaсида umumiy summasi 118 700 000 (bir yuz o'n sakkiz million yetti yuz ming) so'm bo'lgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2022-yildagi "Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatichilagini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-208-son Qarori talablarasi asosida tuzilgan.

Taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilikka, xususan O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagи "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-1-son Qonuni talablariga mos keladi.

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



M.Mamatqulov

29.09.2022 yil.